



O'ZBEKISTON STANDARTLAR INSTITUTI

UZBEKISTAN INSTITUTE OF STANDARDS

УЗБЕКСКИЙ ИНСТИТУТ СТАНДАРТОВ

QAROR

2026-yil 20-iyul

16/STQ-son

Toshkent sh.

Madaniy boyliklar sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita tashkil etilish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrdagi "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RQ-800-son Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-martdagi 220-son qarori bilan tasdiqlangan "Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq "Kuchlanish transformatorlar" sohasida texnik jihatdan tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar bazasining dolzarbligini va undan foydalana olish imkoniyatini ta'minlash, standartlashtirish ishlarini takomillashtirish, milliy va xalqaro miqyosidagi samaradorligini oshirish maqsadida, **qaror qabul qilaman:**

1. "ART VERNISSAGE" MChJning 2026-yil 28-iyundagi 185-son murojaat xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. "ART VERNISSAGE" MChJ huzurida STQ 39 "Madaniy boyliklar" sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita faoliyati tashkil etilsin.

3. Texnik qo'mita kotibiyatini yuritish "ART VERNISSAGE" MChJga topshirilsin.

4. Quyidagilar:

STQ 39 "Madaniy boyliklar" sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita Nizomi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin. STQ 39 "Madaniy boyliklar" sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita tarkibi mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

5. Texnik qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (I. Djaborov):

Mazkur qaror nusxasini texnik qo'mitaning qayta tasdiqlangan Nizomi va tarkibi bilan besh ish kuni ichida texnik qo'mita kotibiyatiga yuborilishini ta'minlasin.

6. Axborot texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi boshlig'i (D. Ikromov):

Texnik qo'mitadan biriktirilgan mas'ul xodimga Milliy standartlar loyihalarini Standartlashtirish bo'yicha milliy organing rasmiy veb-sahifasiga joylashtirish va kuzatib borish jarayoni to'liq tushuntirilsin. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan Texnik qo'mita to'g'risidagi ma'lumotlarni besh ish kuni ichida O'zbekiston standartlar institutining rasmiy veb-sahifasiga joylashtirishni ta'minlasin.

7. Standartlashtirish ilmiy-tadqiqot bo'limi boshlig'i (J.Axmatov):

— Texnik qo'mita faoliyatini raqamlashtirish hamda ularning ISO xalqaro standartlashtirish tashkilotining texnik qo'mitalarida milliy oyna qo'mita sifatida ishtirokini ta'minlash maqsadida mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan texnik qo'mita tarkibidagi a'zolar (jumladan, qo'mita raisi, qo'mita kotibi)ni ISolutions platformasidan ro'yxatdan o'tkazsin va tizim orqali dolzarblashtirishni ta'minlasin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Direktorning texnik to'siqlarni bartaraf etish va texnik qo'mitalar bo'yicha o'rinbosari U. Shodjalilov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



M.A. Hamzayev